



**SHARQDA MINIATYURA SAN'ATINING RIVOJLANISHI. HIROT, ERON, HIND
MINIATYURA MAKTABLARI.**

Yodgorov Nodir Djalolovich

*Buxoro davlat Pedagogika instituti "Pedagogika va ijtimoiy fanlar" fakulteti "
Musiq va tasviriy san'at" kafedrasida professori*

Nurullayeva Mehriniso Bobirshoh qizi

*Buxoro davlat Pedagogika instituti "Pedagogika va ijtimoiy fanlar" fakulteti "
Musiq va tasviriy san'at" kafedrasida II bosqich magistranti*

Annotasiya: Ushbu maqolada sharq miniatyura san'at rivojlanish bosqichlari va bu asosida vujudga kelgan miniatyura maktablari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Miniatyura, kitob miniatyurasi, Hirot miniatyura maktabi, Eron miniatyura maktabi, Hind miniatyura maktabi.

**DEVELOPMENT OF MINIATURE ART IN THE EAST. HERAT, IRAN, INDIAN
MINIATURE SCHOOLS.**

Yodgorov Nadir Dzhhalolovich

*Bukhara State Pedagogical Institute, Faculty of Pedagogy and Social
Sciences, Professor of the Department of Music and Fine Arts*

Nurullayeva Mehrinisa Bobirshah khizi

*Bukhara State Pedagogical Institute, Faculty of Pedagogy and Social
Sciences, Department of Music and Fine Arts, II degree of Master*

Abstract: This article talks about the stages of development of oriental miniature art and the schools of miniatures created on this basis.

Key words: Miniature, book miniature, Herat school of miniature, Iranian school of miniature, Indian school of miniature

**РАЗВИТИЕ МИНИАТЮРНОГО ИСКУССТВА НА ВОСТОКЕ. ГЕРАТ, ИРАН,
ИНДИЙСКИЕ ШКОЛЫ МИНИАТЮРЫ.**

Ёдгоров Надир Джалолович

*Бухарский государственный педагогический институт, факультет
педагогики и социальных наук, профессор кафедры музыкального и
изобразительного искусства*



Нуруллаева Мехриниса Бобиршах кызы

Бухарский государственный педагогический институт, факультет «Педагогика и социальные науки», отделение «Музыка и изобразительное искусство», II степень магистра

Аннотация: *В данной статье рассказывается об этапах развития искусства восточной миниатюры и созданных на этой основе школах миниатюры.*

Ключевые слова: *миниатюра, книжная миниатюра, гератская школа миниатюры, иранская школа миниатюры, индийская школа миниатюры.*

2020 yilda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitaning 15-sessiyasi davomida Ozarbayjon, Eron Islom Respublikasi, Turkiya va O'zbekistonning miniatyura san'ati Insoniyatning nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan. Miniatyura san'ati Shashmak musiqasi, Navro'z, Xorazm "Lazgi" raqsi va boshqa ro'yxatga kiritilgan elementlar bilan bir qatorda O'zbekistondan Ro'yxatga¹ kiritilgan sakkizinchi nomoddiy

madaniy meros bo'ldi. Miniatyura ko'p asrlar davomida mavjud bo'lishiga qaramay, o'tmish va hozirgi zamon o'rtasida ko'prik bo'lib, rivojlanishda davom etmoqda.


Miniatyura- badiiy usullari o'ta nafis bo'lgan kichik hajmli tasviriy san'at turidir. O'rta asr qo'lyozmalarini ziynatlash uchun foydalanilgan nafis mo'jaz rasmlar, suyak, pergament, mag'zi soxta (toshqog'oz), metal, chinni, ba'zan maishiy buyumlarga ishlangan kichik hajmli rangtasvirga ham miniatyura atamasi ishlatiladi.

Miniatyura - bu dunyoviy tasviriy san'atning bir turi, O'rta asr qo'lyozma kitoblarida illyustratsiya sifatida musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan kichik rangli rasmlar. U kitob betlarini bezash va jildlash bilan birga muhim dekorativ element bo'lgan. Kitob miniatyurasi san'ati Yaqin va O'rta Sharq, Afg'oniston, Misr, Iroq, Eron, Suriya, Turkiya, O'rta Osiyo va Mo'g'uliston Hindistonida XIII - XVII - asrlar oralig'ida avj oldi . Ba'zi mamlakatlarda esa u XIX asrga qadar mavjud edi. Ushbu markazlarning har birining o'ziga xos rivojlanish yo'lini bo'lgan, Lekin shu bilan birga, ular arab yozuvi, adabiyoti, mumtoz she'riyati

o'sha davr uchun hos bo'lgan estetik g'oyalar va axloqiy me'yorlarga asoslangan badiiy til va mavzularning muayyan o'xshashligiga ega.

Ilgari miniatyuralarda arab qissalari, Eron dostonlari qahramonlari, mashhur fors yoki turkiy she'riy asarlar qahramonlari hamda turli xil tarixiy voqealar





tasvirlangan. Ayrim miniatyuralar xattotlik namunalari bilan birga Murakka albomlarida to'plangan va go'zallikdan bahramand bo'lish uchun xizmat qilgan. Miniaturada, avvalambor, yozuvning nozikligi, dekorativligi va belgilangan kanonlar doirasida syujetning talqini yuqori baholangan. Hozirgi kunda miniatyurachilar ko'pincha klassikaga aylangan ushbu mavzularga murojaat qilishadi.

O'rta asrlarda bo'yoq va mo'yqalamlar qo'lda tayyorlangan. Miniaturist-rassomlar bo'yoqlarining pigmentlari sifatida tabiiy minerallar ishlatishgan, tuxum oqi yoki sarig'idan esa bog'lovchi moddalar sifatida foydalanishgan Osmon, kostyum detallari, me'morchilik yoki uy-rozg'or buyumlarining ornamental manzarasini tasvirlash uchun suyuq yoki choyshab oltindan, suvni tasvirlash uchun esa kumushdan foydalanilgan. Zamonaviy miniatyuristlar esa tayyor temperaturali bo'yoqlardan, akvarel va guashdan foydalanishga harakat qilishadi.

Sharq jumladan Markaziy Osiyo xalqlarining tasviriy san'atdagi miniatyura ham o'ziga xos rivojlanishga uchradi. Samarqandda shakllangan tasviriy san'at maktabi Hirot orqali jahon xalqlari madaniyatiga ta'sir o'tkazganini alohida qayd etmoq kerak. Hirotida rivojlangan shakllangan nufuzli san'at maktabida Kamoliddin Behzod o'nlab musavvirlarga ustozlikqildi. Umuman Behzod ijodining olamshumulligi shundaki u o'lmas maktab yarata oldi. Uning ijodidan ilhomlangan Qosim Ali, Muzaffar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Mirsaid Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo kabi ko'pgina musavvirlar miniatyura san'ati ravnaqi uchun xizmat qiladilar.

Arab miniatura maktabi jahon madaniyati taraqqiyoti tarixida Sharqiy Arabiston xalqlari san'atining ham muhim o'rni bo'lib, ular keyingi avlodlarga qadim yunon-rim madaniyatining ko'pgina yutuqlarini saqlab qolib, uni rivojlantirgan holda yetkazib keldilar.

Miniaturaning yuzaga kelishi va rivojlanishi, arab tilida badiiy adabiyotning ravnaqi, kitobning qadimda Sharqda ilmu ma'rifat manbai sifatida yuksak qadrlanganidan dalolat beradi. Miniatura -kalligrafiya, sahifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo'lyozmaning eng asosiy murakkab dekorativ belgilaridan birini tashkil qiladi, Miniaturaning asosiy ahamiyati matn mazmunini tushuntirish va umuman olganda, dunyoviy xarakterga ega bo'lgan asarlarni bezashdan iborat bo'lgan. Asosan, proza, poeziya, ilmiy traktatlar, tarixiy xronikalar aks etgan asarlarga miniatura ishlangan. Ular orasida «Kalila va Dimna» hikoyalari, yunon vrachi Dioskoridning «Farmakologiya», Rashididdinning «Jam'iut tavorix» asarlari bor edi. O'rta asr qo'lyozmalari faqat guash bo'yoqlari bilan ishlangan. Bu bo'yoqlarni tayyorlash usuli Yaqin Sharqqa VIII asrda Markaziy Osiyo orqali Xitoydan o'tgan. Madaniyat markazlarini vayron qilgan, tez-tez sodir bo'lib turgan bosqinchilik urushlari tufayli ilk arab miniaturalari deyarli saqlanib qolmagan.




Bizgacha yetib kelgan arab miniaturachilarining asarlari ham asosan XIII asrga taalluqlidir.

Osiyoda eng yirik davlatlardan hisoblangan Eron insoniyat taraqqiyotning eng qadimgi markazlaridan biridir. Eron miniatura san'ati dunyoviy rangtasvirning eng yorqin tarixiy sahifalaridan biridir. Bu san'atning bizgacha yetib kelgan birinchi yodgorliklari XI asr boshlariga taalluqlidir, ammo miniatura janrining sosoniylar davridayoq (III-VII asrlar) mavjud bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Fors miniaturasi kitob illustratsiyasi shaklida yuzaga kelib, to XVI asrgacha ham kitob va qo'lyozma varag'i bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Katta shaharlarda, hukmdorlarning saroylarida, mansabdor shaxslarda kitoblarni ko'chirish va bezatish bilan shug'ullanadigan katta-katta ustaxonalar bo'lgan. Qadimgi Eron qo'lyozmalari, muqovasining rang-barangligi, nafis yaltiroq qog'ozga yozilgan nasta'liq husnixatining nafisligi, miniaturalarning yorqin bo'yoqlari va naqshin bezaklari hamon kishi diqqatini o'ziga tortib keladi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, Eron miniaturasi va undagi matn parchasi orasida o'ziga xos uyg'unlik mavjud. Mineral bo'yoqlar tuxumning oqida yoki o'simlik mumida eritilib ishlatilgan, rasmning ba'zi bir joylariga tilla va kumush suvi yugurtirilgan. Qog'oz va tayyor surat tog' billuri yoki qimmatbaho qizil tosh, aqiq bilan jilolangan. Qo'lyozma kitobning zarvarag'i rang-barang ornamental naqshlar bilan o'ralgan. Sahifalarning hoshiyasi o'simliklarni tasvirlovchi naqshlar va hayvonlar shakli bilan to'ldirilgan bo'lib, oqish rang tilla suvi yoki zarhal bilan qoplangan. Teridan qilingan muqovalar esa tilla qo'shilgan naqshlar bilan zarb qilingan.

XVIII asrlarda Shimoliy Hindistonning poytaxt shaharlari Agra, Dehli, Lohurda rivoj topgan hind miniatura maktabi o'ziga xosligi va yuksak badiiy xususiyatlari bilan Sharq miniatura rassomchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. Bu miniatura rassomchiligining shakllanishi va taraqqiyotida qadimgi mahalliy hind tasviriy san'atining boy an'analari bilan bir qatorda qo'shni va chet mamlakatlar bilan Hindistonning faol madaniy munosabatda bo'lganligi alohida ahamiyatga ega. Bu Movarounnahr (Samarqand, Buxoro), Xuroson (Hirot), Janubiy Ozarbayjon (Tabriz), Eron (Sheroz) va G'arbiy Yevropa rassomchiligining hind miniaturasidagi ta'sirida seziladi. Jumladan, qo'shni mamlakatlardan ko'pchilik olimlar, shoirlar, mohir rassomlar, xattotlar va boshqa san'at namoyandalari Hindistonga kelib yashab, hind madaniyati taraqqiyotiga o'ziga xos hissa qo'shganlar.

Hind miniatura rassomchiligi XVI asrning ikkinchi yarmida Jaloliddin Muhammad Akbar (1556-1605) davri san'at voqeligi sifatida ma'lum bo'lib, aslida bu rassomchilik maktabiga Bobur va Humoyun asos solgan. Hindistondagi yangi sulola asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur (1525-1530) shoir, xattot, olim bo'lishi bilan






bir qatorda rassomchilikka juda qiziqqan. Uning shoh asari «Boburnoma»dan ma'lumki, u tabiat manzaralarini, odamlar qiyofasini usta rassomlardek tasvirlaganki, ular kitobxon diqqatini darhol o'ziga tortadi. Mana shu xususiyat uchun bo'lsa kerak, hind rassomlari bu kitobning forscha tarjimai qo'lyozma nusxalarini bir necha marta ko'plab nafis rasmlar bilan ziynatlaganlar. Bundan tashqari, «Boburnoma»da to'rtta hirotlik va samarqandlik rassomlar - mashhur ustod Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, Boysunqur (Sulton Mahmud Mirzo o'g'li), Haydar Mirzolarning nomlari tilga olingan.

Xulosa qilib aytganda O'rta Osiyo miniatyura san'atini o'rganish jarayonida qadimgi O'zbekiston, Eron va Hindiston, shu qatorda Hirot miniatyura maktablari san'atiga etibor bermasdan iloj yo'q. O'zbekiston hududiga mansub, qadimgi rangtasvir san'atiga o'ziga xos bebaho namunalarga ega va bular o'z davrida Sharq miniatyurasining yirik maktablari tasirida rivojlangan. Sharq miniatyura maktablari o'ziga xosdir, zero ularning har biri alohida rivojlanish bosqichlariga ega.

REFERENCES:

1. A.Madramova, N.Normatov. Sharq miniatyura maktablari (maqolalar to'plami)
2. Валиев, А. Н., Туланова, Д. Ж., & Гуломова, Н. Х. (2018). Современные педагогические и инновационные технологии обучения на занятиях по черчению. Молодой ученый, (3), 183-184.
3. Туланова, Д. Ж., & Гуломова, Н. Х. (2018). Технология и условия проведения дидактических игр в процессе преподавания черчения в вузе. In Образование как фактор развития интеллектуально-нравственного потенциала личности и современного общества (pp. 89-93).
4. Jabborova Shahzoda Husen qizi (2022) Vizual faoliyat jarayonini boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida qo'llash. IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI 15(02) 24-27
5. Aslanova Nargiza Hakimovna (2021) Tasviriy San'at Fani To'garaklarida STEAM Talim Tizimi. Journal of Innovations in Social Sciences 01(06) 2021 99-106
6. Jabborova Shahzoda Husen qizi (2022) TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA NAZARIY BILIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI. O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. "ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ" ISSN: 2658-7989 05.04.2022





7. Umurova Maftuna Uyg'un qizi (2022) DEKORATIV SAN'AT VA UNING
O'QUVCHILAR BADIY ESTETIK DIDIGA TA'SIRI. "ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В
XXI БЕКЕ" ISSN: 2658-7989 05.04.202

